
RASMIY MUNOSABAT



Ijtimoiy tarmoqda “Qahramon Quranboyov Farg’ona gayam bir nazar solib qo’ying” (<https://t.me/antikorrusz/26459>) jumalari bilan boshlangan xabar tarqaldi. Unda Farg’ona shahridagi “Huvaydo” MFY da O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrda PQ-402-sonli qaroriga muvofiq jismoniy shaxslarning turar joylaridan undirilgan soliq tushumining 10% (foizi) mahalla hisobiga hamon tushirib berilmagani keltirilgan

Ushbu holat O’zbekiston mahallalari uyushmasi Farg’ona viloyati boshqarmasi ishchi guruhi tomonidan joyga chiqib o’rganilgan.

Shuni ma'lum qilamizki, Farg’ona shahar “Huvaydo” MFY ning Farg’ona shahar g’aznachiligida ochilgan hisob raqamiga Davlat soliq inspeksiyasining bergan ma'lumotiga asosan jismoniy shaxslarning turar joylaridan undirilgan soliq tushumining 10% 2024 yil yanvar, fevral, mart, aprel oylarida jami 11 874 133 (o’n bir million sakkiz yuz yetmish to’rt ming bir yuz o’ttiz uch so’m) mablag’lar o’tkazib berilgan.

Hozirgi kunda ushbu mablag’lar “Huvaydo” mahallasining ijtimoiy iqtisodiy muammolarini hal etish jamg’armasi hisob raqamida saqlanmoqda va belgilangan tartibda mahalla fuqarolar yig’ini yettilik a’zolarining kollegial qarori va smetasiga asosan sarflanishi nazarda tutilgan.

Shu o’rinda fuqarolarimizga murojaatlari uchun minnatdorlik bildiramiz hamda Farg’ona shahar hokimligi mamlakatimizda kechayotgan ochiqlik siyosatiga hamohang tarzda faoliyat ko’rsatishini eslatib o’tamiz.

Rasmiy sahifalarimizda bizni kuzatib boring:

Fargona.uz|Telegram (<https://t.me/fargonauzpress>)|Facebook (<https://www.facebook.com/FargonaShaharHokimligi>)|Instagram (https://www.instagram.com/invites/contact/?i=tdcj6pr3s6us&utm_content=b15bx0f)|YouTube (https://youtube.com/channel/UCLRhccmoUTWmdkYE_Vy_lyw)|TikTok (http://tiktok.com/@fargona_axborot_xizmati)

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#)

2024-06-04 17:08:29